

**“TBC Bank” ATBning
“Sovg’aga fiskal modul”
aksiyasini o’tkazish qoidalari**

MUNDARIJA

1. Umumiy qoidalar;
2. Atama va ta’riflar;
3. Aksiya tashkilotchisi;
4. Aksiyada ishtirok etish tartibi;
5. Ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari;
6. Bankning huquq va majburiyatlari;
7. Mas’uliyat;
8. Nizolarni hal qilish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1.** Ushbu “TBC Bank” ATB (keyingi o’rinlarda - Bank) ning “Sovg’aga fiskal modul” aksiyasini o’tkazish qoidalari (keyingi o’rinlarda - Aksiya) Bank mijozlarining Aksiyada ishtirok etish shartlari va tartibini belgilaydi.
- 1.2.** Aksiya lotereya, tavakkalchilikka asoslangan o’yin yoki uning ishtirokchilari uchun mulkiy tavakkalchiliklar yuzaga kelishi bilan bog’liq boshqa tadbir hisoblanmaydi. Aksiyani o’tkazish ishtirokchilar tomonidan ishtirok etish uchun hech qanday to’lovni o’z ichiga olmaydi.
- 1.3.** Ushbu Qoidalar O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan: www.tbcbank.uz.
- 1.4.** Aksiya amal qilish muddati: 01.11.2025-yildan boshlab - ushbu Qoidalarining 6.2-bandida nazarda tutilgan tartibda chaqirib olingunga qadar muddatsiz.
- 1.5.** Aksiya O’zbekiston Respublikasi hududida o’tkaziladi.
- 1.6.** Bank bilan Savdo ekvayring shartnomasini tuzgan va Fiskal modul bilan jihozlangan uskunani olgan har qanday Bank mijozi Aksiya ishtirokchisi bo’lishi mumkin.
- 1.7.** Bank mahsulotlari va xizmatlarini olish, ulardan foydalanish tartibi va shartlari Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlari ko’rsatishning bosh shartlari (keyingi o’rinlarda “KBX” deb ataladi), shuningdek, boshqa shartnomalar bilan tartibga solinadi.
- 1.8.** Ushbu Qoidalarining 1.6-bandida ko’rsatilgan shartlarga javob beradigan Bank mijozi ushbu ommaviy ofertani qabul qilgan va Aksiyada ishtirok etish shartlariga rozilik bildirgan deb hisoblanadi.

2. ATAMA VA TA’RIFLAR

Aksiya	Bankning “Sovg’aga fiskal modul” aksiyasi
Uskunalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi	Uskunaning Mijozga topshirilganligini tasdiqlovchi hujjat.
Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki
BHM	O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdori.
Mijoz	Bank tomonidan belgilangan tartibda identifikatsiya qilingan va hisob-kitoblar va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan Bankda ochiq bank hisobvarag’iga ega bo’lgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.
Uskuna	Savdo ekvayring shartnomasi doirasida Mijozga taqdim etiladigan, Karta saqlovchisiga xizmat ko’rsatish uchun mo’ljallangan, Fiskal modul bilan jihozlangan texnik vosita.
Fiskal moduli	Fiskal ma’lumotlarni real vaqt rejimida fiskal ma’lumotlar operatoriga uzatishni ta’minlovchi modul. Fiskal moduldan foydalanish tartibi O’zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan.
Ishtirokchi	Ushbu Qoidalarining 1.6-bandida belgilangan shartlarga javob beradigan Bank mijozi.

3. AKSIYA TASHKILOTCHISI

- 3.1.** Aksiya tashkilotchisi Bank hisoblanadi.

3.2. Bankning murojaat uchun ma'lumotlari: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B-uy.
Telefon: +99878 777 2727.

Pochta: contact@tbcbank.uz

4. AKSIYADA ISHTIROK ETISH TARTIBI

4.1. Bank Mijozni tomonidan Savdo-ekvayring shartnomasi tuzilganda va Aksiya muddati davomida Uskunalar ulanganda, Bank "Yangi texnologiyalar" ilmiy-axborot markazi" DUK foydasiga har bir ulangan Uskuna uchun Bank Mijozining fiskal moduliga xizmat ko'rsatishning birinchi yili uchun BHMning 1 baravari miqdorida to'lovni amalga oshiradi.

To'lov Bank va Mijoz o'rtasida Savdo ekvayring shartnomasi tuzilganidan so'ng xizmat ko'rsatishning birinchi yili uchun bir martalik tarzda amalga oshiriladi.

Keyingi yillarda Mijoz amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda yillik badalni mustaqil ravishda to'laydi.

4.2. Aksiya ishtirok etish Mijozni davlat organlari va Bank oldidagi boshqa majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

4.3. Bank va Ishtirokchi o'rtasidagi munosabatlar tomonlar o'rtasida tuzilgan Savdo ekvayring shartnomasi, shuningdek, Bankning boshqa amaldagi shartnomalari va ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi.

5. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Ishtirokchi huquqlari:

5.1.1. Aksiya to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu Qoidalar, KBX va Bank bilan tuzilgan boshqa shartnomalarda nazarda tutilgan hajmda va tartibda olish;

5.1.2. Ushbu Qoidalarining 1.6-bandida belgilangan mezonlarga rioya qilish sharti bilan ushbu Qoidalariga muvofiq Aksiya ishtirokchisi maqomini olish.

5.2. Ishtirokchi majburiyatlari:

5.2.1. Aksiya ishtirok etishdan avval ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqish lozim. Aksiya qatnashish orqali Bank Mijozni mazkur Qoidalar bilan tanishganligini tasdiqlaydi hamda ularning barcha shartlariga to'liq va so'zsiz rozi ekanligini bildiradi.

6. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Bank ushbu Qoidalariga muvofiq Aksiyaning o'tkazish, shuningdek, ishtirok etish shartlarini lozim darajada bajargan Ishtirokchilarga Sinov muddatini taqdim etish bo'yicha majburiyatlarni bajarish majburiyatini oladi.

6.2. Bank ushbu Ofertani bir tomonlama chaqirib olish huquqiga ega. Chaqirib olish to'g'risidagi ma'lumotlar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi va/yoki uning amal qilish muddati tugashidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin boshqa mavjud usullar, shu jumladan mobil ilovaga SMS, push-bildirishnomalar va (yoki) elektron pochta orqali xabarnomalar yuborish orqali Mijozlarga yetkaziladi.

6.3. Aksiya ishtirokchilarini identifikatsiya qilish va suiiste'molchiliklarning oldini olish maqsadida Bank O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Aksiya maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hajmda Ishtirokchilarning ma'lumotlarini, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, mijoz bilan o'zaro munosabatlar davomida olingan anketa ma'lumotlari, hujjatlar, ma'lumotlarni so'rash va qayta ishlash huquqiga ega.

6.4. Bank Sinov muddatini taqdim etish shartlariga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, Aksiya to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni rasmiy veb-saytida e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi: <https://tbcbank.uz>.

6.5. Mijoz Sinov muddatini taqdim etishga faqat Bank tomonidan Ishtirokchining ushbu Aksiya shartlariga muvofiqligini tekshirish yakunlangandan so'ng, shuningdek, Ishtirokchi tomonidan suiiste'mol qilish, qoidabuzarlik yoki boshqa shubhali yoxud noqonuniy xatti-harakatlar mavjud bo'lmagandagina da'vo qilishi mumkin.

Ishtirokchining asosli fikriga ko'ra Bank Sinov muddatini taqdim etishni rad etishga haqli:

- ushbu Qoidalarni buzgan bo'lsa;
- Aksiya shartlaridan vijdotsizlarcha foydalangan bo'lsa;
- g'ayriqonuniy foyda olishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirgan bo'lsa;
- Aksiya shartlarini boshqa yo'l bilan suiiste'mol qilgan bo'lsa.

6.6. Ushbu Qoidalarining 6.5-bandida ko'rsatilgan hollarda, Bank o'z ixtiyoriga ko'ra:

- a) ilgari taqdim etilgan Sinov muddatini bekor qilish;
- b) Mijozga kelgusida Aksiya ishtirok etishni rad etish;
- v) Mijozni Aksiya bo'yicha Sinov muddatini olish huquqidan mahrum qilish;
- g) Mijozning kelgusi aksiyalar, yutuqli o'yinlar va sodiqlik dasturlarida ishtirokini to'xtatish yoki bloklash;
- d) Mijoz hisobining amal qilishini vaqtincha yoki butunlay to'xtatish.

6.7. Aksiya shartlarini suiiste'mol qilish sifatida, jumladan, quyidagi harakatlar ko'rib chiqiladi:

- bir necha shaxs tomonidan yoki bir shaxs tomonidan bir nechta akkauntlar yaratilganda;
- Aksiya ro'yxatdan o'tish yoki ishtirok etishda noto'g'ri, yolg'on yoki soxta ma'lumotlarni taqdim etish;
- ijtimoiy tarmoqlarda, internet-saytlarda, forumlarda, qidiruv tizimlarida yoxud axborotni ommaviy joylashtirish va/yoki ommaviy tarqatishning boshqa usullarida noto'g'ri, g'ayriqonuniy yoki buzib ko'rsatilgan axborotni tarqatish;
- hisob egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga hisobdan foydalanishga ruxsat berish.

7. MAS'ULIYAT

7.1. Bank ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi, agar bunday bajarmaslik Aksiyaning amal qilish muddati davomida texnik uzilishlar, nosozliklar, axborot yoki dasturiy ta'minot tizimlaridagi xatolar, shuningdek, uchinchi shaxslarning, shu jumladan Bankning hamkorlari va xizmat ko'rsatuvchilarining xatti-harakatlari (harakatsizligi) natijasida yuzaga kelgan bo'lsa.

7.2. Bank Aksiya ishtirok etish doirasida Ishtirokchilarning xatti-harakatlari uchun javobgar emas. Bank fiskallashtirish tizimlariga ulanishdagi uzilishlar yoki xatolar uchun, agar ular uchinchi shaxslarning xatti-harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, javobgar bo'lmaydi.

7.3. Ushbu Qoidalarining 7.1-bandida ko'rsatilgan hollarda, Bank o'z tizimlarida, shuningdek, Aksiyani amalga oshirishda ishtirok etuvchi hamkorlar yoki xizmat ko'rsatuvchilar tizimlarida yuzaga kelgan texnik nosozliklar, xatolar va boshqa nosozliklarni bartaraf etish muddatlarini mustaqil ravishda belgilashga haqli.

7.4. Agar bunday imkoniyat uchinchi shaxslarning, shu jumladan Bankning hamkorlari, yetkazib beruvchilari va boshqa kontragentlarining ushbu Aksiya shartlarining buzilishiga olib kelgan qasddan yoki qasddan bo'lmagan harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, Bank ushbu Qoidalar bo'yicha majburiyatlarni bajara olmaslik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

7.5. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha masalalar KBX, Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal qilinishi kerak.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu Qoidalaridan yoki ular bilan bog'liq holda kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Tomonlar o'rtasidagi o'zaro maslahatlashuvlar va muzokaralar asosida sudgacha hal qilinishi lozim. Da'vo tartibi nizolarni ko'rib chiqishning majburiy shartidir.

8.2. Agar Tomonlar ushbu Qoidalarining 8.1-bandida nazarda tutilgan tartibda nizoli masalalar bo'yicha kelishuvga erishmasalar, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Bank ro'yxatdan o'tgan joydagi sud tartibida hal etiladi.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Mazkur Qoidalar Bankning www.tbcbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan.

9.2. Aksiya ishtirokchilari yuqorida ko'rsatilgan veb-saytda joylashtirilgan o'zgarishlar va yangilanishlarni muntazam ravishda tekshirib, Aksiya shartlarining dolzarbligini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.

9.3. Bank mijoz mavjud aloqa kanallari orqali Bankka tegishli xabarnoma yuborish orqali ushbu Aksiya ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega.

9.4. Bankning affilangan shaxslari Aksiya ishtirok etish huquqiga ega emas.